

KOGNITIV KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH, BO'LG'USI O'QITUVCHINING ASOSIY OMILI.

Tadjibayeva Rayhonaxon Muhammadjon qizi
QDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika kolleji talabalarida kelajak professional faoliyatlarini hisobga olgan holda kognitiv kompetentlikni shakllantirish muommolari ochib berilgan. Kognitiv kompetentlikni shakllantirish dolzarbligi “kognitiv kompetentlik”, “tanqidiy savodxonlik”, “kelajak ko'nikmalari” tushunchalarini taqqoslab analiz qilish orqali asoslangan. Muallif tomonidan kognitiv kompetentlikni shakllantirishning esse metodi samaradorligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv kompetentlik, tanqidiy savodxonlik, kelajak ko'nikmalari, esse metodi.

Аннотация: В статье раскрывается проблема формирования когнитивной компотентности студентов педагогического колледжа в контексте их будущей профессиональной деятельности. Актуальность формирования когнитивной компетентности обоснована через сравнительный анализ понятий «когнитивная компотентность», «критическая грамотность», «навыки будущего».

Автором показана эффективность одной из стратегий формирования когнитивной компотентности- метода эссе.

Ключевые слова: когнитивная компетентность, критическая грамотность, будущие навыки, метод эссе.

Annotation: This article reveals the problems of cognitive component formation in students of the pedagogical college, taking into account their future professional activities. The relevance of the formation of cognitive component is based on the comparative analysis of the concepts of "cognitive competence", "critical literacy",

"future skills". The author shows the effectiveness of the essay method of forming cognitive competence.

The author shows the effectiveness of one method of strategic formation of cognitive competence - essay method.

Key words: cognitive competence, critical literacy, future skills, essay method.

Jahondagi tez o'zgarishlar tag'limda xam keskin o'zgarishlarga olib keladi. Xozir jaxonda raqamli eraga sakrash yuz bermoqda. Prezidentimiz tomonidan 2023 yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nomlanishi ta'limga xam katta talablarni qo'ymoqda. Bunda o'qitishning zamonaviy usullarini dars jarayonlariga qo'llash muxim rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar esa zamonaviy texnologiyalarning bir yo'nalishidir.

O'zingiz o'ylab ko'ring: planshetlar, mobil telefonlar, smart soatlar, kundalik xayot tarziga aylanib bormoqda. Darslarda prezentatsiyalar, videoroliklardan foydalanishni xozirda yangilik emas. Raqamli texnologiyalar 21 asr ta'limining asosidir. Yigirma birinchi asr bilimlar asri deb ataladi, jamiyat hayot faoliyatini hamma soxalaridagi rivojlanish yangi bilimlar, ma'lumotlar kelib chiqishiga asoslangan. Yangi bilimlar, yangi bilim va ko'nikmalar paydo bo'lishiga olib keladi. Bugun ularni kelajak ko'nikmalari deyiladi. Bu ko'nikmalarga ega bo'lish insonga zamonaviy reallikda yashash, o'qish va ishlash imkoniyatini yaratadi. Kelajak ko'nikmalarining asosi – tanqidiy savodxonlikdir.

Yaqin kunlarga qadar jahonda ta'lim sifati akademik savodxonlik sifatida taqlid qilinar edi. Turli sohalarda ulkan bilimlar massiviga ega bo'lgan inson bilimli hisoblanar edi. So'ngra keng miqyosda tehnologiyalashtirish jamiyatning hayot faoliyatidagi barcha sohalarida funksional savodxonlikni faollashtirdi- ega bo'lgan bilimlarni turli hil savol va muammolarni yechish uchun amaliyotda qo'llaniladi. Insoniyat tarixidagi zamonaviy era hayotda savodxonlikni yangi turi- tanqidiy savodxonlikni keltirib chiqardi – bu esa bilimlar bazasi asosida bugun uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoniyatidir. Zamonaviy inson uchun tanqidiy savodxonlikga ega bo'lish nima uchun kerak?

Birinchi sababi: bilimlar tez eskiradi (ba'zi birlari paydo bo'lmaganidan dolzarbligini yo'qotadi)

Ikkinchi sabab: har bir inson hayoti ajoyib hayotda bir hil inson bo'lmaganday, bir hil inson hayot tarzi ham mavjud emas. Har birimiz har kuni turli hayot holatlariga duch kelamiz, chunki hayot o'zi katta miqdordagi hayotiy va o'quv holatlaridan iborat.

Yechib bo'lmaydigan masala va muommolarni yechishda ulardan qadr- qimmat bilan chiqish kerak. Bunda tayyor ilm, kimnidir bilimlari, tavsiyalari, retseplaridan foydalanish mumkin. Shular orqali inson muommolarini hal qilsa yaxshi bo'lardi. Tayyor amaliyotlar yordam bermasachi? Inson yetarli bilimlar kontentiga ega bo'lmasachi? Agar bu muommolarni yechishga kech qolgan bo'lsachi? Bunda inson hayoti, sog'ligi, baxtli bo'lishi uchun bu masala o'ta muhimdir.

Uzoq o'tmishdan boshlab maktab vazifasi insonni yashashga o'rgatish hisoblangan. U bolalarga bilim beradi, turli hil masala va muommolarni yechishga o'rgatadi. Lekin bu yetarlicha emas. Bugun yashab ketish uchun oddiy va agressiv dunyoda, inson tanqidiy savodxonlikga ega bo'lishi kerak, bu esa doimiy tanlov holatiga tushganda muommoni yechishning optimal variantini topishdir.

Tanqidiy savodxonlik muommosi o'qituvchi uchun dolzarbdir. U bolalarni turli muammo va vazifalarni yechishga o'rgatadi. Lekin bu yetarlicha emas. o'qituvchining vazifasi o'z tarbiyalanuvchilarini baxtli, loyiq yashashga o'rgatishdir. Bo'lg'usi o'qituvchini bunga qanday o'rgatish mumkin?

Har bir insonning shu jumladan o'qituvchining professional hayoti – professional holatlar ketma – ketligi dolzarb muommolar yechimini izlash va samarali strategiya va taktikalarini tanlashdan iborat. Ko'p hollarda katta usullar arsenali texnologiyalari, yondashuvlari va vositalar hosil nostandart vazifalarni yechishga yordam bermaydi. Bunda o'qituvchi nostandart metodlarga tayanish kerak. Tajribali o'qituvchi bilimlari, kompetentsiyalari, professional tajribaga tayanib to'g'ri yechimni topishi mumkin. Agar o'qituvchi yosh va tajribasiz bo'lsachi? Yosh o'qituvchilarning ayrimlari o'zini yo'qotib qo'yadi, muommoga qo'l siltab qo'ya qoladi. Buning natijasida ular kasbdan soviydi va

maktabdan ketishga qaror qiladi. Va faqat muommoli xolatni tahlil qilib, muommoni yechishning alternativ usullarini topib, optimal yechimlarni qo'llab amaliyotda sifatli natija oladi, o'z faoliyatini davom ettiradi. Bular tanqidiy savodxonlikga ega bo'lgan, yangi bilimlarni qo'llay olgan, standart va nostandart vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan kelajak o'qituvchilaridir. Professional pedagogik ta'lim muassasalari o'z faoliyatlarida nafaqat bugunni balki uzoqni ko'zlab ishlashlari kerak. Ular chiqargan mutahasisslar nafaqat o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalab olishlari, balki ularni ertangi real hayotga tayyorlashlari zarur. O'qituvchi nafaqat o'zi tanqidiy savodxonlikga ega bo'lmasdan o'quvchilarda ham tanqidiy savodxonlikni takomillashtirishlari kerak. Bu yo'lda o'qituvchiga zamonaviy samarali o'qitish usullari, o'qitish strategiyalari, shu bilan birga muammoli o'qitish texnologiyalari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ixtiroviy masalalarni yechish, loyihalar metodi o'yin metodikalari va boshqalar yordam beradi.

Bizning fikrimizcha tanqidiy savodxonlik bo'lg'usi o'qituvchining faollashtirilgan professional kompetentlari – kognitiv[1] informatsion kommunikativ (raqamli) va auto psixologik majmuyi sifatida qaraladi. Professional kompetentlarni faollashtirish vaqt chaqiruvlariga, jamiyat va davlat talablariga asoslangan.

Bu 3 kompetentlardan asosiysi kognitivlikdir.

Kognitiv kompetentlik uning mustaqil ta'limga tayyorligini o'z ustida mustaqil ishlashni ta'minlovchi o'qituvchi shaxsining interaktiv harakteristikasidir.[2] B.B. Краевский va A.B. Хуториский kognitiv kompetentlikni shaxsni bilim resurslarini rivojlantirishni tam'inlagani, barcha faoliyat bosqichlarida vujudga kelgan bilish muammolarini yechishga imkon berishini, muammoni yechishni evristik usullariga ega bo'lganligi uchun asosiy kompetentlikga kiritadi.[3]

Kognitiv kompetentlikni tashabbuslarning intellektual varianti sifatida qaraladi, harakat qilib inson holatni vazifalarni, muommolarni, imkoniyatlarni yoki bilimlar hajmini tushunishga keladi. Olimlar tomonidan kognitiv kompetentlikni quyidagi asosiy guruh baholanish parametrlari shakllantirilgan: fikrlash analitivligi, bilim sohasining chuqurligi va satxi, tushunish strukturasi shakllanganligi (foydalanuvchining

tushunchalarni ajratish ko'nikmasi), klassifikatsiya qilish qobiliyati, detallarni tasavvur qilib aniqlash qobiliyati, fikrlash mantiqiyligi obyektlar va tushunchalar bog'lanishlari, ma'lumotni qabul qilishning o'ziga hos usulini tanlash.[4]

Ayni kognitiv kompetentlik inson hayotining barcha bilish jarayonlarida samarali yechim topish uchun imkoniyat beradi, uni uzluksiz bilim saviyasini oshiradi, shu sababli kasbiy faoliyatda o'zgarishlar kuzatiladi. Bu fikrga ko'ra biz kognitiv kompetentlikni tanqidiy ko'nikmalar, sistemali strategik, kreativ fikrlash, shaxsiy bilim trayektoriyalarini loyihalash ko'nikmalari majmuyi sifatida qaraymiz.

Yuqorida ta'kidlanganiday o'qitishning zamonaviy texnologiyalari o'z arsenaliga turli samarali strategiyalarni va kognitiv kompetentlikni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi usullarni qamrab oladi. Bu strategiyalardan biri -esse metodidir. Bizning holda esse metodini ikki variantda qo'llash mumkin. Birinchi variantda fikrlash ko'nikmalari usullari metodi sifatida, ikkinchi variantda shaxs kognitiv kompetentlikni shakllantirishning diagnostika metodi sifatida. Esse mualliflik insho – fikrlashi sifatida publisistikaning tanqid janriga kiradi, shu sababli unda qandaydir adabiy, falsafiy, estetik jarayon erkin tahlil qilinadi. Esse janrining asoschisi M. Mopiyani hisoblanadi. Uning barcha mehnati turli hil ilmiy va hayotiy muammolarni o'z ichiga oluvchi esselar to'plamidan iborat.[5] Esse bu shaxsiy fikrlar va tasavvurlarni o'z ichiga oluvchi kichik hajmli prozaik inshodir. Bizning holda esse tarifiga quyidagi mos keladi: “ Esse bu qandaydir muammoni sistematik ilmiy ko'rinishda emas, erkin shaklda ifodalovchi ocherkdir...[6] Bu janr nafaqat pedagogikada keng tarqalgan. Bugun esse oliy o'quv yurtiga kirish hujjatlar paketining asosi, balki turli sohalarda ishlash uchun bankning lavozim tanlovlarida qatnashish hujjatlar paketining asosi hamdir. Esse yozish o'quvchilar uchun qiziq ijodiy vazifa bo'lsa, o'qituvchi uchun esse o'quv jarayonida talabalar bilimni diagnostika qilishning samarali usullaridan biridir.

Esse yozish fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, fikrlarni yozma bayon qilishni ta'minlaydi. Inson sabab natija bog'lanishlarini aniqlashga, ma'lumotni tartiblashga,

o'ziga zarur bo'lgan fikrlarni shakllantirishga, o'z nuqtai nazarini asoslashga, turli hil misollar orqali tushuntirishga o'rgatish kerak.

Essega qo'yilgan talablar uning tuzilishini muammo bo'yicha muallif fikrini oldindan aniqlaydi. Qisqa tezislar shaklida keltirilgan fikrlar isbotlar bilan to'ldiriladi, shuning uchun har bir matndan so'ng argument keltiriladi.

Bizlar tomonimizdan esse yordamida kognitiv kompetentlikni shakllanish darajasini aniqlovchi diagnostik metodikasi ishlab chiqilgan.[7] Sistemali fikrlar ko'nikmalari quyidagi parametrlar bo'yicha diagnostika qilinadi:

- 1) Tartiblash (matnda uchta blok; kirish, asosiy qism va xulosa bo'lishi).
- 2) Esse mazmunini tanlangan mavzuga mosligi.
- 3) Ichki ma'noviy birlik, yani xulosa va terminlarning mosligi, assotsiatsiya va argumentlarning ichki gormoniyasi, fikrlarni qarama – qarshi ma'noga ega emasligi, bu fikrlarda muallimning shaxsiy dunyoqarashi ifodalanadi.

Esse asosida quyidagi indikatorlarning mavjudligi tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanganligidan dalolat beradi: tezislar argumentatsiyasi mavzuni yoritish maqsadida tezis va argumentlarni ilgari surish, ya'ni nostandartlik materialini berishdagi ijodkorlik (masalan aniq fikr va paradoksial ta'rif, harakteristika va tezislar).

Kreativ fikrlash ko'nikmalariga biz muommoni qabul qilishning shaxsiy harakterini kiritdik, bayon emotsionalligi, muommoli g'oyalari o'ziga xosligi, g'oyalarni bayon qilishning tabiiyligi, boshqa g'oyalarga og'maslik, (yengillik, uslubning yaxshiligi). Essening o'ziga xos tili (obrazga tushish, afforistiklik, mavzuning yorqin va adabiyli).

Kognitiv kompetentlikning muhim komponenti quyidagi parametrlar bilan aniqlanuvchi belgilangan maqsadga yetishishga nostandart yondashuv keltirilgan argumentlarning dolzarbligi, mumkin bo'lgan holatlarni prognoz qilish, xususiy missiyani ko'ra olish va uni amalga oshirish imkoniyatlarini strategik fikrlash hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek kognitiv kompetentlik o'qituvchining mustaqil ta'limga tayyorligini ifodalovchi interaktiv harakteristikasidir. Uning asosida individual trayektoriyalarni loyihalash ko'nikmalari yotadi, ularni quyidagi ko'rsatkichlar yordamida diagnoz qilinadi. Holatni yaxshilash uchun xususiy reja mavjudligi, mumkin bo'lgan muommalarni tavsifi va ularni yechish yo'llari, keltirilgan rejani tahlil qilish qobiliyati va uni konkret vazifaga moslash. Esse metodi fikrlashning turli ko'rinishlari bo'yicha talabalarga bilim berishning samarali usuli hisoblanadi va shu bilan birga shaxsni kognitiv kompetentligini shakllantirishning faol harakat usulidir. Shuni tan olish kerakki, esse o'qitishning universal strategiyasi hisoblanadi va umumta'lim maktablarida kasb fanlarini o'qitishda qo'llaniladi. Esse yordamida bo'lg'usi o'qituvchining kognitiv kompetentligini samarali shakllantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Карпыкова, Г. У. Интенсификация процесса подготовки будущего учителя в профессиональной образовательной организации / Ю. Б. Буров, Г. У. Карпыкова // Инновационное развитие профессионального образования. — 2019. — № 4 (24). — С. 53–59.
2. Липатникова, И. Г. Формирование когнитивной компетентности в процессе обучения студентов педагогических вузов элементарной математике / И. Г. Липатникова, Т. Ю. Паршина // Современные проблемы науки и образования. — 2012. — № 1. — URL: <http://www.scienceeducation.ru/ru/article/view?id=5492> (дата обращения: 01.06.2020).
3. Краевский, В. В., Предметное и общепредметное в образовательных стандартах / В. В. Краевский, А. В. Хуторской // Вестник Института образования человека. — 2011. — № 1. — URL: http://eidos-institute.ru/upload/journal/2011/Eidos-Vestnik2011-104-Kraevskiy_Khutorskoy.pdf (дата обращения: 01.06.2020).
4. Дружинин, В. Н. Когнитивная психология : учебник для вузов / В. Н. Дружинин, Д. В. Ушаков. — Москва : Per Se, 2002. — 480 с. — ISBN 5-9292-0034-3.
5. Монтень, М. Опыты / М. Монтень. — Москва : Терра — Книжный Клуб, 2009. — 1696 с. — ISBN №978-5-275-01922-3.
6. Крысин, Л. П. Толковый словарь иноязычных слов / Л. П. Крысин. — Москва : Эксмо, 2010. — 59 с. — ISBN 978-5-699-41919-7.
7. Mirhojiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Linguopoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
8. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
9. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 78-82.

11. Abdulxayeva, M. (2023). AKTdan foydalangan holda diktant olish metodikasi. Scienceweb academic papers collection.
12. Abdulxayeva, M. (2023). O'Z DIKTANT YOKI YODDAN YOZUV DIKTANTI. Interpretation and researches, 1(1).
13. Tadjibayeva, R. (2023). ELECTRONIC LEARNING OPPORTUNITIES IN THE PROCESS OF DIGITALIZATION OF EDUCATION. Journal of Innovation, Creativity and Art.
14. Muhammadjon-qizi, T. R. (2023). ELECTRONIC LEARNING OPPORTUNITIES IN THE PROCESS OF DIGITALIZATION OF EDUCATION. Journal of Innovation, Creativity and Art, 246-249.
15. Tadjibaeva, R. Methodology of Working on Numerical and Variable Expressions. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
16. Tadjibaeva, R. Using The Exercise System To Grow Students' Thinking Skills. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
17. Tadjibayeva, R. (2023). O'qituvchi mahoratini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Scienceweb academic papers collection.
18. Tadjibayeva, R. (2023). Ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish. KASB-HUNAR TA'LIMI.
19. Mamadalievich, Y. M., & Mamasolievich, T. R. (2022). THE NEWSPAPER" SADOI FERGHANA" IS THE NEWSPAPER OF THE FERGHANA REGION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1236-1240.
20. Tolipov, R. (2022). Characteristics of the levels of formation of the control action in younger schoolchildren. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 92-99.
21. Normatov, A. A., Tolipov, R. M., & Musayeva, S. H. Q. (2022). MAKTABLARDA MATEMATIKA FANINI O 'QITISHNING DOLZARB MASALALARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5), 1068-1075.
22. Akbarova, X. (2023). ASQAD MUXTOR IJODINING O'ZIGA XOSLIGI. Interpretation and researches, 1(1).
23. AKBAROVA, X. (2023). LINGVOPOETIKA SOHASINING VUJUDGA KELISHI VA NAZARIY MASALALARI. Comparative Turkish Dialects and Literatures, 1(3), 27-32.
24. ABDULLA QAHHORNING "MASTON" HIKOYASIDA KELTIRILGAN FE'LLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI
25. Jumanovna, U. G., & Kumushxon, M. (2023). ABDULLA QAHHORNING "MASTON" HIKOYASIDA KELTIRILGAN FE'LLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI. Ustozlar uchun, 18(1), 93-97.
26. Mirhojiddinovna, J. D., Bakhodirovna, S. D., Otakoziyeva, A. S., Makhmudovna, A. K., & Jumanovna, U. G. (2022). Peculiarities Of Studying The Linguopoetic Features Of Historical Terms In A Text Environment. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1595-1598.
27. Akbarova, M. (2021). FOLKLORE IN PRIMARY EDUCATION-THE LINGUISTIC FEATURES OF TEACHING PROVERBS. In Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации (pp. 106-108).
28. NIZAMOVA, S., & AKBAROVA, M. LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF SOME NICKNAMES. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (10), 563-565.
29. AKBAROVA, M. BADIY MATNDA UCHRAYDIGAN G 'AYRIODATIY BIRIKMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI. Comparative Turkish Dialects and Literatures, 1(2), 25-31.

30. Shavkatovna, A. M., & Nurjahon, M. (2023). BADIY MATNDA UCHRAYDIGAN GAYRIODATIY BIRIKMALARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ustozlar uchun*, 15(1), 266-270.
31. Shavkatovna, A. M. (2023). G'AYRIODATIY BIRIKMALARNING BADIY MATNDA LINGVOPOETIK AKTUALLASHUVI. *Journal of Integrated Education and Research*, 2(3), 129-132.
32. Shavkatovna, A. M. (2023). Morphological Characteristics of Unusual Compounds Found in Literary Text. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 83-88.
33. Shahzoda, A. Studying the Historical terms used in Takhir Malik's works from the aspect of Text Linguistics. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
34. Bahodirovna, S. D. (2023). Linguistic Culture of Terms in " Alvido Bolalaik" by Tahir Malik. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 2(3), 79-84.
35. REFLECTION OF TERMS IN THE HUMAN MIND UNDER THE INFLUENCE OF VARIOUS FACTORS
36. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1628-1632.
37. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION*, 2(3), 58-62.
38. Dilafruz, M. (2022). BOUNDARY ISSUE IN THE TERMINO SYSTEM. *Gospodarka i Innowacje.*, 159-161.
39. Mirhojiddinova, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1599-1604.
40. Alijonovna, M. D. (2022). THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 9, 144-152.
41. BADIY MATNDA QISHLOQ XO'JALIGIGA OID TERMINLARNING USLUBIY XOSLANISH IMKONIYATLARI MD Alijonovna Qo'qon DPI. *Ilmiy xabarlar* 3, 169-174